

## INGLIZ TILI YOZMA NUTQINI O'RGATISHNING NAZARIY VA METODIK ASOSLARI

Yo'ldosheva Maftuna Islom qizi

katta o'qituvchi, O'zbekiston Respublikasi  
Ichki Ishlar Vazirligi Sirdaryo akademik litseyi  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.19808397>

**ANNOTATSIYA:** Ushbu maqola yozuvning tarixiy rivojlanish bosqichlari va yozuvning yangi tillar paydo bo'lishidagi o'rni borasida ilmiy dalillarni keltirib, yozuv va yozma nutqqa bo'lgan qarashlar, uning differensial va nodifferensial yondashuvlari haqida olimlarning qarashlari hamda yozuv va yozma nutqni o'rgatishdagi tamoyillar, yondashuvlar va uslublar borasidagi ma'lumotlarni tahlil etadi.

Ushbu tadqiqot muvoffiq adabiyotlarni izlash, adabiyotlarni tahlil qilish, birinchi qolama nusxani yaratish, qayta ishlash va tadqiqotni tayyor holga keltirish kabi besh bosqichda amalga oshirildi. Ma'lumotlar ishonchiligi, ilmiy yangili va muvoffiqligiga ko'ra saralangan, tahlil natijalari esa rasmiy usuldan foydalangan holda yoritilgan.

**KALIT SO'ZLAR:** yozuv, yozma nutq, yondashuv, tamoyil, ko'nikma, ingliz tili, janr, uslub, model.

Yozuv inson taraqqiyotining inikosi sifatida jamiyatda o'zining o'rniga ega bo'lgan jarayon sanaladi. Bugungi kunga qadar topilgan qadimga yozuvlarga asosan insoniyat taraqqiyotidagi eng qadimiy yozuv taxminan 5500 yillik o'tmishga borib taqaladi. Shu davrdan boshlab dunyo bo'ylab sanoqsiz tillar va ularning yozuv shakli, alifbosi va yozma nutqi shakllangan bo'lsa, ularning bir qismi bugungi kunga kelib iste'moldan chiqib ketgan. Bunga misol qilib qadimgi lotin tilini olishimiz mumkin. Xususan, ushbu til bugungi kunda o'lik til sanalsada, unga oid terminlar falsafa va meditsiniga oid tushunchalarning ma'nosini anglash vositasi sifatida ijtimoiy hayotning ba'zi jabhalarida faol qo'llanilmoqda. Tillar tarixi borasida gap ketar ekan, shu o'rinda tillarning paydo bo'lishida boshqa tillarning ta'siri haqida gapirishni joiz deb bildik. F.Alimov o'z tadqiqotida keltirishicha dinning tarqalishi ham ma'lum ko'rsatkichlarda yozuv bilan bog'liq bo'lgan. Xususan, Xristianlarning diniy kitobi "Injil" va "Tavrot"ning bir qismi "Zabur"ni tarjima qilish zarurati III-IV asrlarda got yozuvining, VII-IX asrlarda esa qadimgi irland, ingliz va nemis tillaridagi yozuvning paydo bo'lishga sabab bo'lgan<sup>1</sup>. Demak, bugungi kundagi ingliz yozma tili diniy zarurat tufayli jamiyatga kirib kelgan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Qadimda yozuvdan jamiyatning faqat ilg'or kishilari habardor bo'lgan va uni o'zlashtirishdagi asosiy maqsad etib zodagon qatlamiga mansub jamiyatni oddiy xalqdan ajratib turish bo'lgan. Maktab ta'limida ham og'zaki tilga diqqat qaratilib, yozma tilga deyarli ahamiyat berilmagan. Faqatgina XIX asrning so'ngiga kelibgina yozuvni ilmiy-nazariy va aniq-amaliy jihatdan o'rganishlarga bo'lgan qiziqish boshlangan. Buning natijasida "yozuv" va "yozma nutq", keyinchalik esa yozma til to'laqonli va maxsus tilshunoslik obyektlari sifatida o'rganilishi yo'lga qo'yila boshlangan. XX asrning boshlarida tilshunoslik fanida yozuvning o'ziga xos xususiyatlari hamda og'zaki va yozma tillarning farqlarini ajratib ko'rsatish va ularga izohlar berishga urinishlar boshlangan.

Dastavval yozuv va yozma nutq nodifferensial holda tasniflangan bo'lsa, vaqtlar o'tishi bilan ular differensial tasniflangan. Xususan, "yozuv" o'zida ikki tushunchani ifodalaydi, ya'ni a)tilning

<sup>1</sup> Алимов Ф.Ш. Инглиз тилида ёзув компетенциясини шакллантириш (нофилологик факультетлар мисолида): Пед. фан. бўй. фал. д-ри (PhD) дисс. ... автореф.— Тошкент, 2018. 136-Б. 6-29-30.

grafik, orfografik, punktuatsion va kallegrafik qoidalarini bilish va yozma matn tayyorlash jarayonida ulardan foydalana olish ko'nikmasini, bir so'z bilan aytganda til sathidan foydalana olish ko'nikmasini; va b) yozma axborot yaratish ko'nikmasi ma'nolarini o'zida mujassamlashtiradi. "Yozma nutq" esa nutqiy faoliyatning mahsuldor turi sifatida muayyan mazmuni grafik belgilar yordamida ifodalashda namoyon bo'ladi.

F.Alimov yozma nutqqa o'rgatishda 8 ta asosiy tamoyillarni sanab o'tadi: 1) yozma fikr bildirishga nisbatan ongli munosabat; 2) ona tili va o'rganilayotgan ingliz tilidagi yozuv bilan bog'liq til tajribasini hisobga olish; 3) yozma nutqqa o'rgatishga faoliyat sifatida qarash; 4) tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyati va urf-odatlarini hisobga olish; 5) yozma fikr bildirishga nisbatan shaxsiy ehtiyoj; 6) ko'nikma va malakalarni bosqichma-bosqich hosil qilish; 7) yozma nutqqa o'rgatishdagi izchillik; 8) yozma fikr bildirishning ijodiy xarakterga egaligi.<sup>2</sup>

J.J.Jalolov, G.T.Mahkamova, Sh.S.Ashurovlar ingliz tili yozuvini o'rgatishda to'rt yondashuvni ajratganlar. Ularga: 1) matnga asoslangan yondashuv, 2) yozuvchiga asoslangan yondashuv, 3) janrga asoslangan yondashuv va 4) kommunikativ yondashuvlar kiritilgan bo'lib, ularning har biri yo'nalganlik xususiyatiga ko'ra o'zaro farqlanadi. Bularning tashqari, yurtimiz va xorijning qator olimlari ham yozuvni o'rgatishdagi turli yondashuvlarni tahlil etganlar. Jumladan, M.Alimardonova chet tilidagi yozma nutqni o'rgatishda ikki yondashuvni: 1) mahsulotga yo'naltirilgan model va 2) yozma nutq ishini yaratish jarayoniga yo'naltirilgan modelni; E.N. Sololova esa direktiv, lingvistik hamda faoliyatga asoslangan yondashuvlarni farqlagan.

Yozma axborot ma'lum maqsad asosida yozilishiga ko'ra o'zining vazifalariga ega bo'ladi. Shu jihatga ko'ra janrlar bir-biridan farq qiladi. L.K.Mazunova diskurs uslublarini to'rt turga ajratgan va ular tarkibiga kiruvchi janrlarni ham belgilab bergan. Olim tahlilicha ular: badiiy uslub, ilmiy uslub, ommaviy-axborot uslubi, ishchi uslublaridan iborat. L.R.Sakaeva, A.R.Baranova esa diskursiv janrlar terminidan voz kechgani holda yozuv turlarini farqlagan, ular: o'quv yozuvlari, kasbiy yozuvlar, ijtimoiy yozuvlar, shaxsiy va ijodiy yozuvlardan iborat. N.V.Smirnova o'quvchilar kommunikativ ehtiyojlarini inobatga olgan holda ikki janrni: 1) kommunikativ janrlar va 2) bilimlarni uzatuvchi/ transformatsiya qiluvchi janrlarni farqlagan.

Yuqorida bildirilgan ilmiy qarashlarga muvofiq, "yozuv" va "yozma nutq" insoniyat sivilizatsiyasining 5500 yillik tajribasini o'zida mujassam etgan murakkab ijtimoiy-pedagogik jarayon bo'lib, u grafik qoidalar yig'indisidan iborat til sathidan (yozuv) muayyan mazmuni ijodiy bayon etish vositasigacha (yozma nutq) bo'lgan bosqichlarni qamrab oladi. Bugungi kunda ingliz tili yozuv ko'nikmasini shakllantirishda onglilik, izchillik va shaxsiy ehtiyoj kabi tamoyillar farqlanadi, matnga, janrga yoki kommunikatsiyaga yo'nalgan yondashuvlardan foydalanish qator olimlar tomonidan ilgari suriladi.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Вторушина Нина Юрьевна. ПИСЬМО И ПИСЬМЕННАЯ РЕЧЬ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ, Альманах современной науки и образования, 2010. № 1 (32): в 2-х ч. Ч. II. С. 129-132. b-129 ISSN 1993-5552. (Elektron manbaa: [www.gramota.net/editions/1.html](http://www.gramota.net/editions/1.html); [www.gramota.net/materials/1/2010/1-2/46.html](http://www.gramota.net/materials/1/2010/1-2/46.html))
2. J.J.Jalolov, G.T.Mahkamova, Sh.S.Ashurov. English language teaching methodology (theory

<sup>2</sup>Алимов Ф.Ш. Инглиз тилида ёзув компетенциясини шакллантириш (нофилологик факультетлар мисолида): Пед. фан. бўй. фал. д-ри (PhD) дисс. ... автореф.— Тошкент, 2018. 136-Б. 6 -106

and practice). -Т.: Fan va Texnologiya,2015. 336 - В. b-208-211.

3. АЛИМАРДОНОВА МАЛИКА БОТИР ҚИЗИ. БЎЛАЖАК ИНГЛИЗ ТИЛИ ЎҚИТУВЧИЛАРИНИНГ ЁЗУВ МАЛАКАЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШДА БАҲОЛАШ ХУСУСИЯТЛАРИ. Ped.fan.fal.dok. diss..., Т.:2023, 165-В.

4. Л.Р. Сакаева, А.Р. Баранова. Методика обучения иностранным языкам. – Казань, КФУ, 2016. – 189 С.

5. Н.В. СМЕРНОВА. ОБУЧЕНИЕ ИНОЯЗЫЧНОЙ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ КАК СОЦИАЛЬНОЙ ПРАКТИКЕ В УСЛОВИЯХ БИЛИНГВАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ (СОЦИОЭКОНОМИЧЕСКИЕ СПЕЦИАЛЬНОСТИ) (на материале английского языка). Автореферат.дис. ...док.пед.наук. - Санкт-Петербург, 2018. – 23 с.

6. Алимов Ф.Ш. Инглиз тилида ёзув компетенциясини шакллантириш (нофилологик факультетлар мисолида): Пед. фан. бўй. фал. д-ри (PhD) дисс. ... автореф.– Тошкент, 2018. – 44 б.